

QISHLOQ XO'JALIGI
TAVAKKALCHILIKLARINI
SUG'URTA QILISH BO'YICHA
USLUBIY QO'LLANMA

Toshkent – 2025

**Qishloq xo'jaligi tavakkalchiliklarini sug'urta qilish bo'yicha
uslubiy qo'llanma.** T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2025-
yil. – __ bet.

Mazkur qo'llanma O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi tavakkalchiliklarini sug'urta qilish tartibini sodda va ravon tilda tushuntirishga qaratilgan.

Qo'llanma fuqarolar, korxona hamda tashkilotlar uchun qishloq xo'jaligida sug'urtalanishi lozim bo'lgan tavakkalchiliklar, qishloq xo'jaligi tavakkalchiliklari sug'urtasi shartnomasini tuzish va qayta sug'urta qilishni amalga oshirish, sug'urta mukofotlari bo'yicha subsidiyalar berish, qishloq xo'jaligi sug'urtasi shartnomasi bo'yicha zararni aniqlash va sug'urta tovonlarini to'lash bo'lgan jarayonni tushunishda amaliy yordam berishga mo'ljallangan.

Ushbu uslubiy qo'llanma tavsiyaviy xususiyatga ega.

MUNDARIJA

Qishloq xo'jaligi sug'urtasini tashkil etish Ошибка! Закладка не определена.


Qishloq xo'jaligi sug'urtasini amalga oshirish..... 2

**Qishloq xo'jaligi sug'urtasi hodisalari bo'yicha zararning o'rnini
qoplash 7**

**Sug'urta qilish bosqichma-bosqich joriy etiladigan qishloq xo'jaligi
yo'nalishlari va mahsulotlari ro'yxati 9**

Yakunlovchi qoidalar17

QISHLOQ XO'JALIGI TAVAKKALCHILIKLARINI SUG'URTA QILISH BO'YICHA

O'zbekiston Respublikasining "Qishloq xo'jaligi tavakkalchiliklarini sug'urta qilish to'g'risida"gi Qonuni	
O'zbekiston Respublikasi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 21-noyabrdagi PF-223-sonli "Qishloq xo'jaligi tavakkalchiliklarini sug'urta qilish mexanizmini samarali tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni	
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-dekabrdagi "Qishloq xo'jaligi tavakkalchiliklarini sug'urta qilish tizimini joriy etishning tashkiliy chora-tadbirlari haqida"gi 772-sonli qarori	

KIRISH

Mazkur qo'llanma qishloq xo'jaligida sug'urtalanishi lozim bo'lgan tavakkalchiliklar, qishloq xo'jaligi tavakkalchiliklari sug'urtasi shartnomasini tuzish va qayta sug'urta qilishni amalga oshirish, sug'urta mukofotlari bo'yicha subsidiyalar berish, qishloq xo'jaligi sug'urtasi shartnomasi bo'yicha zararni aniqlash va sug'urta tovonlarini to'lashni qamrab olgan.

“Qishloq xo'jaligi sug'urtasi” axborot tizimi — qishloq xo'jaligi sug'urtasini elektron tarzda rasmiylashtirish, qishloq xo'jaligi sug'urtasi shartnomasining ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazish va ko'rsatilayotgan sug'urta xizmatlari ustidan nazorat qilish imkoniyatini ta'minlovchi axborot tizimi.

Muvofiqlashtiruvchi davlat organi — qishloq xo'jaligi tavakkalchiliklarini sug'urta qilishni muvofiqlashtiruvchi davlat organi — O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi;

Adliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan mazkur uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, qoidalari va texnik me'yoriy hujjatlariga asosan, yuridik va jismoniy shaxslarni gaz ta'minoti tarmoqlariga ulash tartibi, shartlari va talablarini birlashtirgan, amaliy yordam ko'rsatishga qaratilgan. Qo'llanma mazkur sohada ishtirok etuvchi barcha tomonlar – gaz tashkilotlari, loyihalash va qurilish-montaj tashkilotlari, yuridik va jismoniy shaxslar uchun aniq va tushunarli ko'rsatma vazifasini bajaradi.

Yetishtiriladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining yo'qotilishi (nobud bo'lishi) xavflari bo'yicha sug'urta qilish bosqichlari

Tavakkalchiliklar turlari

1-bosqich



tabiiy va texnogen ofatlar;



yong'in holatlari;

2-bosqich



o'simliklarning kasallik va zararkunandalar bilan zararlanishi;



qishloq xo'jaligi hayvonlarida yuqumli kasalliklarning tarqalishi va zaharlanishi;



uchinchi shaxslarning xatti-harakatlari;

3-bosqich



ekinlarning qishloq xo'jaligi hayvonlari va yovvoyi hayvonlar tomonidan payhon qilinishi



qishloq xo'jaligi hayvonlariga zarar yetkazilishi.

Qishloq xo'jaligi sug'urtasini tashkil etish

Qishloq xo'jaligi sug'urtasi uni amalga oshirishning umumiy shartlari va tartibini belgilovchi qishloq xo'jaligi sug'urta shartnomasiga hamda qoidalariga asosan amalga oshiriladi.



Qishloq xo'jaligi sug'urtasi shartnomasida qishloq xo'jaligi sug'urtasining muhim shartlari ko'rsatilishi kerak.



Qishloq xo'jaligi sug'urtasi ixtiyoriy sug'urta shaklida amalga oshiriladi, bundan qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqaruvchilar mahsulot ishlab chiqarish uchun davlatning imtiyozli kreditlaridan foydalanganda ishlab chiqariladigan qishloq xo'jaligi mahsulotini sug'urtasi mustasno.



Qishloq xo'jaligi sug'urtasini elektron tarzda rasmiylashtirish, qishloq xo'jaligi sug'urtasi shartnomasining ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazish va ko'rsatilayotgan sug'urta xizmatlari ustidan nazorat qilish Qishloq xo'jaligi sug'urtasi axborot tizimi orqali amalga oshiriladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqaruvchilarning bo'lg'usi hosilning va yetishtiriladigan qishloq xo'jaligi mahsulotining yo'qotilishi (nobud bo'lishi) xavfi, ekinlarga va qishloq xo'jaligi hayvonlariga, shuningdek issiqxonalarga va ularda yetishtiriladigan qishloq xo'jaligi mahsulotiga zarar yetkazilishi bilan bog'liq bo'lgan mulkiy manfaatlari qishloq xo'jaligi sug'urtasining obyektlaridir.



Qishloq xo'jaligi sug'urtasi shartnomasi bo'yicha sug'urtalangan tavakkalchiliklar Jamg'arma tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda qayta sug'urta qilinishi mumkin.

Qishloq xo'jaligi sug'urtasi tavakkalchiliklarini qayta sug'urta qilish tartibi qonunchilikka muvofiq belgilanadi.

Qishloq xo'jaligi sug'urtasini amalga oshirish shartlari va tartibi

Sug'urta qilinadigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining va tavakkalchiliklarning turlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Sug'urta qilish bosqichma-bosqich joriy etiladigan qishloq xo'jaligi yo'nalishlari va mahsulotlari

RO'YXATI

Bosqichlar	Yo'nalishlar va mahsulot turi	Muddati*
1-bosqich	1) paxta**; 2) don*** va dukkakli ekinlar; 3) olma, gilos, o'rik va uzum; 4) issiqxona xo'jaliklari ekinlari.	2026-yil hosilidan boshlab
2-bosqich	1) kartoshka, piyoz va poliz ekinlari; 2) chorvachilik.	2027-yil hosilidan boshlab
3-bosqich	1) parrandachilik, akvakultura (baliqchilik), asalarichilik; 2) boshqa dehqonchilik mahsulotlari.	2028-yil hosilidan boshlab

Izoh:

* qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun ularni yetishtirish tadbirlari boshlangan davrdan; chorvachilik, parrandachilik, akvakultura (baliqchilik), asalarichilik yo'nalishlarida — ko'rsatilgan yildan; olma, gilos, o'rik va uzum va boshqa mevalarda — ko'rsatilgan yilda hosil yig'ib olinadigan davrdan boshlab sug'urta qilish amalga oshiriladi;

** 2026-yil hosili uchun tijorat banklari orqali imtiyozli kredit belgilangan tartibda ajratiladi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilariga 2026-yil 1-mayga qadar sug'urta qilishga ruxsat beriladi;

*** 2026-yil hosilidagi don ekinlari uchun, istisno tariqasida, sug'urta qilish ixtiyoriy tarzda amalga oshiriladi.

Qishloq xo'jaligi sug'urtasi qoidalarining asosiy qoidalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

sug'urta obyektlari;

sug'urta hodisalari;

sug'urta tavakkalchiliklari;

sug'urta summasini, sug'urta tarifini va sug'urta mukofotini aniqlash tartibi;

sug'urta shartnomalarini tuzish, bajarish va bekor qilish tartibi;

tarablarning huquq va majburiyatlari;

zarar miqdorini aniqlash tartibi;

sug'urta tovonini aniqlash tartibi;

sug'urta tovonini amalga oshirish muddatlari, shuningdek sug'urta tovonini rad etish asoslarining batafsil ro'yxati va boshqa qoidalar.

Qishloq xo'jaligi sug'urtasi obyektining va tavakkalchiligining o'ziga xos xususiyati hisobga olingan holda hududlarning tabiiy-iqlim sharoitlariga asosan belgilanadigan sug'urta summasi birligidan undiriladigan, Kengash tomonidan qishloq xo'jaligi ekinlarining va qishloq xo'jaligi hayvonlarining har bir turi uchun tasdiqlanadigan to'lov qishloq xo'jaligi sug'urtasi shartnomasi bo'yicha sug'urta mukofoti stavkasidir.

Qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqaruvchi qishloq xo'jaligi sug'urtasi shartnomasida ko'rsatilgan sug'urta mukofotining 50 foizini Jamg'armaga to'laydi.

Sug'urta mukofotining qolgan 50 foizi O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti mablag'lari hisobidan Jamg'armaga qoplanadi.

Sug'urta hodisasi yuz bergan taqdirda, Jamg'arma tomonidan qishloq xo'jaligi sug'urtasi shartnomasi bo'yicha mulkiy manfaatlari sug'urta qilingan qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqaruvchilarga

sug'urta tovonini to'lash uchun **mustaqil ekspertning xulosasi** asos bo'ladi.

Jamg'arma tomonidan qishloq xo'jaligi sug'urtasi shartnomasida ko'rsatilgan sug'urta hodisasi yuz berganligi tegishli dalillar asosida tasdiqlanganda, qishloq xo'jaligi sug'urtasi shartnomasida belgilangan muddatda sug'urta tovonini to'lashni rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

Mustaqil ekspertning xulosasi va sug'urta hodisasi yuz berganligi to'g'risidagi dalillarni qayta o'rganib chiqish zarur deb topilsa, Jamg'arma tomonidan qishloq xo'jaligi sug'urtasi shartnomasining taraflari ishtirokida qo'shimcha o'rganish tashkil etiladi va zarar qasddan qilingan harakatlar natijasida yetkazilgan deb hisoblansa, sug'urta tovonini to'lash rad etiladi.

Qishloq xo'jaligi sug'urtasi hodisalari bo'yicha zararning o'rnini qoplash

Qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqaruvchi sug'urta hodisasi yuz berganligi to'g'risida uch kun ichida axborot tizimi orqali ko'rib chiqish uchun Jamg'armaga elektron shaklda xabarnoma yuboradi.



Jamg'arma qishloq xo'jaligi sug'urtasi qoidalarida belgilangan muddatlarda sug'urta hodisasi yuz berganligi to'g'risida xabarnomani o'rganish bo'yicha mustaqil ekspertni tayinlaydi va sug'urta hodisasining o'rganilishini ta'minlaydi.



Sug'urta hodisasini o'rganishda qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqaruvchidan sug'urta hodisasi yuz berganligining sabablari va holatlarini aniqlash bo'yicha hujjatlar axborot tizimi orqali so'rab olinadi.



Mustaqil ekspertni tayinlash va sug'urta hodisasi natijasida zarar ko'rgan sug'urta obyekti bo'yicha ekspertiza o'tkazish shartlari qishloq xo'jaligi sug'urtasi qoidalarida va qishloq xo'jaligi sug'urtasi shartnomasida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

➤ Qishloq xo'jaligi sug'urtasi qoidalariga muvofiq mustaqil ekspertning xulosasi va sug'urta tovonini uchun zarur bo'lgan hujjatlar taqdim etilganidan keyin Jamg'arma sug'urta hodisasini tan olish haqida yoki tan olishni rad etish to'g'risida o'n ish kuni ichida qaror qabul qiladi hamda qabul qilingan qaror haqida qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqaruvchini axborot tizimi orqali xabardor qiladi.

➤ Sug'urta hodisasini tan olishni rad etish to'g'risidagi qarorda rad etish asoslarini Jamg'arma qonunchilik hujjatlariga havola qilgan holda, shuningdek qishloq xo'jaligi sug'urtasi qoidalaridan va qishloq xo'jaligi sug'urtasi shartnomasidan kelib chiqqan holda aniq ko'rsatishi shart.

➤ Sug'urta hodisasini tan olish to'g'risida qaror qabul qilinganidan keyin Jamg'arma sug'urta tovonini qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqaruvchiga uch ish kuni ichida to'lab beradi.

➤ Qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqaruvchi sug'urta tovonini to'lashni to'liq yoki qisman rad etish to'g'risidagi qaror ustidan sud tartibida shikoyat qilish huquqiga ega.

Agar Jamg'armaning o'z mablag'lari va qayta sug'urta qilishdan olingan mablag'lar zimmasiga olingan majburiyatlarni qoplash uchun yetarli bo'lmasa, majburiyatlarning qoplanmagan qismi Jamg'armaga O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablag'lari hisobidan qoplanadi.

Qishloq xo'jaligi sug'urtasi jamg'armasining boshqaruv kengashi

TARKIBI

1. A.M. Qosimov — qishloq xo'jaligi vaziri o'rinbosari — *Kengash raisi*
2. A.YA. Xaydarov — iqtisodiyot va moliya vaziri o'rinbosari — *Kengash raisi o'rinbosari*
3. Lavozimi bo'yicha — Qishloq xo'jaligi vazirligining Qishloq xo'jaligi sug'urtasini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig'i
4. T.E. Mirzayev — Iqtisodiyot va moliya vazirligining Qishloq xo'jaligidagi islohotlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash departamenti direktori o'rinbosari
5. Z.X. Mustafaqulov — O'zbekiston fermerlari kengashi raisining yuridik masalalar bo'yicha o'rinbosari
6. K.A. Abduraximov — O'zbekiston sug'urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasining bosh direktori
7. Lavozimi bo'yicha — Qishloq xo'jaligi sug'urtasi jamg'armasi direktori

Izoh. Kyengash a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, ularning o'rniga tayinlangan xodim Kengash a'zosi hisoblanadi va yangi tarkib keyingi muddatga tayinlangunga qadar faoliyatni amalga oshiradi.

Kengash a'zolarining vakolatlari muddati tugagandan keyin ular yangi muddatga qayta tayinlanishi mumkin.

[illegible]